

8. A.B. Annayev. (2025). AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) *Marketing. Ilmiy, amaliy va ommabop jurnal*. 2025-YIL 16-OKTABR MAXSUS

SON. 327-333 betlar.

9. A.B. Annayev. (2026). *Improving the Socio-Economic Living Standards of the Population in the Regions: Characteristics and Challenges. American Journal of Social and Humanitarian Research. Vol. 7 Issue 2 | pp. 11-16 | ISSN: 2690-9626*

10. A.B. Annayev. (2026). MINTAQADA AHOLINING IJTIMOY-IQTISODIY TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI. INNOVATSION IQTISODIYOT ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL. 2-jild 2-son fevral, 2026 yil, 44-48 betlar.

## **AHOLINING MOLIVAVIY VA SOLIQ SAVODXONLIGINI OSHIRISH: SAMARALI SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TASHKIL ETISH, XUDUDLAR SOLIQ SOLOHIYATINI OSHIRISH NEGIZI SIFATIDA**

**Baxtiyorov Umid Qaxramon o'g'li**

*Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruv va Texnologiyalar Universitetining "Iqtisodiyot va boshqaruv" kafedrasida katta o'qituvchisi*

Mamlakatimizda byudjet soliq siyosatini samarali tashkil etish asosida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, xususiyl mulk daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan "yashil" iqtisodiyot tamoyillariga bosqichma-bosqich o'tish va milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni rivojlantirish va hududlarning soliq salohiyatini kengaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi. Mazkur masala o'z o'rnida mamlakatimizni yanada rivojlantirish yuqori makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni oshirish borasida oldimizga qo'yilgan vazifalarni bajarishda aholining moliya, byudjet va soliq qolaversa, moliyaviy, iqtisodiy savodxonligi oshirish asosiy o'rin egallaydi. Albatta ushbu jaryonga bo'lgan e'tibor kelgusida aholining byudjet, soliq, bank tizimlari ularning ishlash mexanizmi to'g'risida tegishli ma'lumotlarga ega bo'lishi moliyaviy, pul muomalasi va kredit, soliq tizimi, aholi bandligi, hududlarning soliq salohiyatini oshirish va ularning moliyaviy barqarorligida o'z aksini topadi.

Ma'lumki, mamlakatimizda Davlat byudjetini shakllantirishda soliq salohiyati hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, soliqlar davlat daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish, davlat investitsiyalarini moliyalashtirish va strategik loyihalarni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi. Shu maqsadda mamlakatning soliq bazasini kengaytirish va soliq salohiyatini oshirishga xizmat qiladigan tashkiliy-huquqiy va institutsional shart-sharoitlar izchil yaratilmoqda. Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, aholining moliya va soliq yo'nalishida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan muntazam ravishda "Fuqarolar uchun byudjet", "Budjetnoma" nomli axborot nashri fuqarolarimiz diqqatiga havola etilib, qolaversa, har yili byudjet loyihasi fuqarolarimiz tomonidan muhokama etilishi va tegishli me'yoriy huquqiy xujjatlarning oshkorlik tamoyillari doirasida ommaviy axborot vositalari tomonidan yoritilib borilmoqda.

Ma'lumki, "Harakatlar strategiyasining iqtisodiy rivojlanish va liberallashtirish yo'nalishiga muvofiq, so'nggi besh yilda asosiy iqtisodiy islohotlar makroiqtisodiy

barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiyani pasaytirish, soliq yukini kamaytirish va soddalashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, infratuzilmani takomillashtirish, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy integratsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratildi"<sup>205</sup>.

Shu o'rinda, Mamlakatimizning 2026 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi Qonunga (O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda O'RQ-1105-sonli [Qonuniga](#) (2-ilova) e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak (1-jadval)) Milliy bashoratlarga ko'ra, davom etayotgan murakkab geosiyosiy va tashqi iqtisodiy vaziyatlarga qaramay, O'zbekiston iqtisodiyoti 2025-2026 yillarda 6,6 foizga, 2026 va 2027 yillarda esa mos ravishda 6,8 va 6,9 foizga o'sishi kutilmoqda.

Sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari 2026-yilda 6,4 foiz, 2027 va 2028-yillarda esa mos ravishda 6,7 va 6,9 foizni tashkil etishi taxmin qilinmoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari 2026-yilda 4,2 foiz va 2027, 2028 yillarda 4,3 foizga yetishi bashorat qilinmoqda. Bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 2026-yilda 14,5 foiz, 2027-2028-yillarda esa taxminan 14,4 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda.

**1-jadval**

**2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va 2027-2028-yillarga maqsadli mo'ljallar<sup>206</sup>**

T/r	Ko'rsatkichlar	2026 yil uchun prognoz	Maqsadli mo'ljallar	
			2027 yil	2028 yil
1.	Yalpi ichki mahsulot, trln so'm	1 976	2 256	2 576
2.	Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, foizda	6,6	6,8	6,9
3.	Iste'mol narxlar indeksi, o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, foizda	7	5-6	5
4.	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	6,4	6,7	6,9
5.	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	4,2	4,3	4,3
6.	Bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, foizda	14,5	14,3	14,4
7.	Qurilish ishlarining o'sish sur'ati, foizda	10,2	8,3	8,0

Ushbu moliyaviy, iqtisodiy vazifalarni bajarish yuqori ko'rsatkichlarga erishish aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, ularda byudjet, soliq, bank sohalariga oid moliyaviy iqtisodiy ma'lumotlarga ega bo'lishi uning asosida moliyaviy, iqtisodiy va soliq sohalarida tegishli ma'lumotlarga ega bo'lishi natijasida ularning nazariy va amaliy jihatdan bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozimligini talab etadi.

Shuningdek, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, iqtisodiyotimizning yangi bosqichlarga o'tishi jarayonida Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasida strategik maqsadlarga erishishga qaratilgan 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi<sup>207</sup>da ustuvor yo'nalishlar belgilangan.

<sup>205</sup> O'zbekistonning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish to'g'risida IXTIYORIY MILLIY HISOBOTI [https://api.mf.uz/media/document/files/Ikkinchi\\_milliy.pdf](https://api.mf.uz/media/document/files/Ikkinchi_milliy.pdf)

<sup>206</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2025-yildagi O'RQ-1105-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-7949060#-7953687>

<sup>207</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar" to'g'risida 02.12.2022 yildagi PQ-436-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/6303233>

Soliq yukini korxonalar va uy xo'jaliklaridan atrof-muhitning ifloslanishiga va resurslarning isrofgarligiga olib keladigan faoliyatga o'tkazish: yoqilg'i solig'i shaklida imtiyozlar yaratish hamda ekologik toza yoqilg'i va resurslardan foydalanishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha soliq tizimini takomillashtirish; yashil texnologiyalar va infratuzilmaga sarmoya kiritish orqali yashil ish o'rinlarini yaratishni rag'batlantirish; soliqlar va davlat xarajatlarining yashil iqtisodiyotga tegishliligi va ta'sirini baholash va ochib berish uchun yashil byudjet metodologiyasini amalga oshirish - yashil ustuvor hududlarga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan soliqlar va davlat xarajatlarining ulushini baholash uchun yashil byudjet metodologiyasini amalga oshirish; Ekologik toza va xavfsiz texnologiyalarni joriy etuvchi sanoat korxonalari uchun maxsus imtiyoz va preferensiyalar (subsidiyalar, soliq imtiyozlari va boshqalar) ishlab chiqish va berish"<sup>208</sup> ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizda barqaror rivojlanishga erishish vositasi sifatida qaralayotgan moliyaviy, byudjet va iqtisodiy jarayonlarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarini integratsiyalash O'zbekistonni 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishda murakkab vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda soliq salohiyatini va ijtimoiy-iqtisodiy hamda moliyaviy holatni yaxshilashga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish doirasi tobora kengaymoqda. Bu jarayon milliy va global iqtisodiy-moliyaviy munosabatlarning rivojlanishi va o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan tabiiy hodisadir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish uchun moliya, soliq, buxgalteriya hisobi, bank tizimi asoslari, umumiy iqtisodiy savodxonligini oshirishg asosiy e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bundan kelib chiqqan holda, biz aholining moliyaviy va soliq savodxonligini rivojlantirishning asosiy jihatlari quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak, deb hisoblaymiz:

1. Moliyaviy asoslar bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi. Aholi moliyaviy faoliyatning asosiy tushunchalari va tamoyillarini, masalan, byudjetlashtirish, investitsiyalash, kreditlash, soliqqa tortish va boshqalarni o'zlashtirishi kerak. Ular o'z mablag'larini to'g'ri boshqarish va oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilishni bilishlari kerak.

2. Rejalashtirish va byudjetlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish. Aholi byudjetni yaratish, moliyaviy maqsadlarni belgilash, daromad va xarajatlarni rejalashtirishni o'rganishlari kerak. Bu ularga o'z mablag'larini samarali boshqarishga va keraksiz xarajatlardan qochishga yordam beradi.

3. Investitsiyaviy bilmim va ko'nikma. Aholi investitsiya asoslarini va turli investitsiya vositalarini, masalan, aktsiyalar, obligatsiyalar, pay fondlari va boshqalarni bilishlari kerak. Bu ularga moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish va investitsiyalardan daromad olish imkonini beradi.

4. Uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish. Aholi o'zlarining moliyaviy ehtiyojlarini uzoq muddatga rejalashtirish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak, masalan, pensiya ta'minoti, zaxira fondlarini yaratish va hokazo. Bu ularga kelajakda moliyaviy farovonligini ta'minlash imkonini beradi.

5. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va ro'yobga chiqarish. Aholi, yoshlarimiz mamlakatimizning kelajagi va ravnaqi yo'nalishida o'zlarini tadbirkorlik hamda turli

---

<sup>208</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar" to'g'risida 02.12.2022 yildagi PQ-436-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/6303233>

sohalarda o'zlarining g'oyalarini hukumatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan kelib chiqqan holda yangi ish o'rinlarini yangi tashkil etishi, amalga oshirilishi hududlarning soliq salohiyatini oshirishga o'zining hissasini qo'shadi.

6. Moliyaviy risklarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish. Aholining moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq risklarni to'g'ri baholash va boshqarishni bilishlari kerak. Ular yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli vaziyatlarga tayyor bo'lishlari va ularga to'g'ri javob bera olishlari kerak.

## ZAMONAVIY OLIY TA'LIM TIZIMNI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Amonboyev Mahammadsidik**

*Xalqaro Nordik universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinib, an'anaviy ta'lim modeli bilan zamonaviy ta'lim tizimi o'rtasidagi asosiy farqlar qiyosiy yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ta'lim shakllari, talabalar roli, ta'limning asosiy maqsadi, texnologik ta'minoti, ta'lim jarayonining moslashuvchanligi hamda ish beruvchilar bilan hamkorlik darajasi kabi muhim omillar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy oliy ta'lim tizimi raqamlashtirish, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, gibrid o'qitish shakllari hamda mehnat bozori bilan integratsiya orqali yanada samarali va moslashuvchan tizim sifatida shakllanmoqda. Shuningdek, ta'lim jarayonida sun'iy intellekt, raqamli platformalar va innovatsion pedagogik yondashuvlarning keng qo'llanilishi talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qilishi asoslab berildi.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy oliy ta'lim, raqamli ta'lim texnologiyalari, gibrid ta'lim, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, akademik mobillik, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, innovatsion ta'lim muhitlari.

Globalashuv, raqamli iqtisodiyot va bilimlar iqtisodiyoti sharoitida oliy ta'lim tizimining mazmuni va shakli jadal o'zgarib bormoqda. Jahon miqyosida universitetlar innovatsiyalar markaziga aylanib, ilm-fan, texnologiya va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirmoqda. Natijada zamonaviy ta'lim jarayonida raqamlashtirish, akademik mobillik, ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilganlik va kompetensiyaga asoslangan o'qitish kabi yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy darajada esa iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bog'liq. Shu bois mamlakatda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini kuchaytirish hamda ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish muhim vazifa sifatida qaralmoqda.

Mazkur masala mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlarini belgilovchi "O'zbekiston-2030" strategiyasi maqsadlari bilan ham uzviy bog'liq. Strategiyada oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalarini chuqur o'rganish uchun ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish muhim ahamiyat